

ТАЪЛИМНИ БОШҚАРИШДА ТИЗИМЛИ ЁНДАШУВ УСУЛЛАРИ

Ходжиев Азамат Баходирович
E-mail: azamatxodjiyev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekistonda ta’lim tizimini yangi rivojlanish bosqichida isloh qilish Respublikamizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta’lim borasida ham kata islohotlarni amalga oshirilganligi haqida so‘z boradi. Ta’limning yuqori sifatli tuzilmasini yaratish, uzuksiz ta’limni yangi samarali jarayonga aylantirish, shuningdek, ilg‘or jahon tajribasidan foydalanish, rivojlangan mamlakatlarning ta’lim sifatini oshirish metodologiyasini tadbiq etish, tizimning roli va ahamiyati atroflicha tahlil qilingan. Ta’limni boshqarishning zamonaviy usullari, boshqaruvi funksiyalari va shakllari xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, menejment, ta’lim menejmenti boshqaruvi qarorlari, rahbarlik, uzuksiz ta’lim, ta’lim turlari, sifat menejmenti, qo‘srimcha ta’limni qonuniylashtirish, nostrifikatsiya, samaradorlik, xalqaro konvensiyalar.

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о реформировании системы образования в Узбекистане на новом этапе развития, как и во всех сферах нашей республики, в сфере образования реализованы крупные реформы. Создавая качественную структуру образования, превращая непрерывное образование в новый эффективный процесс, а также используя передовой мировой опыт, внедряя методологию повышения качества образования развитых стран, были тщательно проанализированы роль и значение системы. На основе зарубежных и отечественных исследований выделены современные методы управления образованием, функции и формы управления.

Ключевые слова. Образование, менеджмент, управленческие решения образованием, лидерство, непрерывное образование, виды образования, менеджмент качества, легализация дополнительного образования, nostrifikasiya, эффективность, международные конвенции.

ABSTRACT

The article talks about reforming the education system in Uzbekistan at a new stage of development, as in all areas of our republic, major reforms have been implemented in the field of education. By creating a high quality education structure, turning continuous formation education into a modern effective process, as well as using advanced abroad experience, using a methodology developed countries for improving the quality of education, the role and significance of the system were carefully analyzed. Based on foreign and domestic research, modern methods of education management, functions and forms of management are highlighted.

Keywords: Education, management, educational management decisions, leadership, continuing education, types of education, quality management, legalization of additional education, nostrification, efficiency, international conventions.

Menejment - rejalashtirilgan maqsadga qaratilgan boshqaruv va boshqariladigan pastki tizimning maqsadli va tizimli o'zaro ta'siri. Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, "boshqaruv" va "menejment" tushunchalari o'rtasida sezilarli farq yo'q. "Menejer" atamasi "menejer", "rahbar" so'zlari bilan bir xil. "Menejment", "menejer", "ta'lim menejeri", "pedagogik menejment" kabi tushunchalar nimani anglatadi? Hozirgi vaqtida ko'pchilik olimlar menejment ijtimoiy tashkilotlarda menejment nazariyasi va amaliyoti degan nuqtai nazarga amal qiladilar.

Pedagogik menejment - bu:

a) pedagogik tizimlarni boshqarishning printsiplari, usullari, tashkiliy shakllari va texnologik asoslar majmui, ularning faoliyati, samaradorligi va rivojlnishini oshirishga qaratilgan;

b) o'ziga xos ilmiy tadrijiy evolyutsiyaga ega bo'lgan boshqaruv: birinchi daraja - pedagogik jamoa faoliyatini boshqaruv, ikkinchisi - talabalar faoliyatini boshqarish.

Pedagogik menejmentning o'ziga xosligi ta'lim menejeri ishining predmeti, mahsuloti, asbobi va natijalarining xususiyatlaridadir.

Ta'lim jarayoni boshqaruvchisining ish predmeti - u boshqaradigan odamlarning faoliyati. Mehnat mahsuli ta'lim jarayoni haqidagi ma'lumotlardir. Mehnat quroli so'z, nutqdir. Ta'lim jarayonini boshqaruvchi faoliyatining natijasi boshqaruv ob'ekti - o'quvchilarni tayyorlash, tarbiyalash va rivojlantirish darajasidir. Ta'lim sohasi har qanday ijtimoiy tashkilot singari, o'zining ijtimoiy muhiti bilan faol aloqada bo'lgan murakkab, yaxlit, ochiq turdag'i tizimdir. Ta'lim va uning muhiti o'rtasidagi bog'liqlik ikki tomonlama: har qanday ta'lim jamiyat tomonidan ta'sirlanadi va o'zi ham unga ta'sir qiladi va bu o'zaro ta'sir kuchayishda davom etadi.

"Ta'lim mamlakat iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotining poydevori bo'lgani uchun har doim diqqat markazida bo'lib, ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishda yangi tamoyillarga asoslanish, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillarning o'zgarishihsizlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketish muammolarni ham yechimini topishga qaratilgan chora va tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo'lmoqda"¹. Bu holatda birinchi navbatda, bolalar, so'ngra esa kattalar ijtimoiy yordamga muhtojdirlar. Bunday sharoitlarda jamiyatning ijtimoiy muammolari bilan bog'liq bo'lgan pedagogik

¹ Pardaeva M.D. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimini boshqarish (informatika va axborot texnologiyalari fani misolida). Toshkent, 2018.

masalalarni hal qiluvchi, uning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsga yordam beruvchi mutaxassis sifatida ijtimoiy pedagogga talab paydo bo‘ldi.

Menejer eng asosiysi ishlarini modellashtirishi bu inson faoliyatining turli sohalaridagi olingan ma’lumotlar bo‘yicha samarador yechimlar qabul qilish jarayonida boshqarish sohalarida qo‘llaniladi. Menejerni o‘z ishini rejalshtirishdan maqsad tashqi muhit va o‘zaro aloqada bo‘lgan ob’ektlar haqidagi ma’lumotlarga chuqur ega bo‘lishdir¹. Bunda menejer modeli ob’ektning holati xossalari hamda aniq qonuniyatlarini o‘rganish uchun asosiy element sifatida ishtirot etadi.

Ta’lim sifatini monitoringi pedagogik menejer tomonidan rejaning asosini davlat ta’lim standartlari qo‘yilgan talablarning bajarilishi va respublikamizga yetuk mutaxassislar yetishtirib berish hamda intellektual bozorda mutaxassislarga qo‘yilgan talab va taklif tushuntirib tizimli yondashuvlari mayjud bo‘lishi lozim. Rejaning boshqa tarkibiy qismlari va funktsional tizimi elementlarining o‘zaro bog‘liqligi, mantiqan aloqadorligini yoritib berishi, ta’lim sub’ektlari va jarayon ishtirokchilarining ta’lim muhitidagi o‘zaro bog‘liqligini aks ettirishi kerak.

“XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta’lim mazmunini tubdan yangmilash asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’limda tizimli yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Tizimli yondashuvga asoslangan ta’lim - o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim hisoblanadi”².

Hozirgi kunda foydalanilayotgan ayrim tizimli faoliyat yondashuviga asoslangan davlat ta’lim standartlari bugungi zamonaviy talablarga javob bermasligi hamda O‘zbekiston Ruspriblikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi talablariga to‘laqonli javob bermasligini tan olish zarur. Mamlakatimizda modern - zamonaviy ta’lim nazariyasi sifatida tajribadan o‘tgan yondashuvga asoslangan ta’limning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi.

Ta’limning davlat ta’lim standarti o‘quvchilarning barcha fanlardan tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda bitiruvchilariga nisbatan qo‘yiladigan malaka talablarini, o‘quv yuklamasining zarur hajmini, ta’lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini

¹ N.G.Nichkalo, G.N.Filonova, O.V.Suxodolskoy-Kuleshov. Sovremennoe obrazovanie kak otkrytyaya sistema. - "Institut nauchnoy i pedagogicheskoy informatsii RAO, "YuRKOMPANI", 2012

² Vaxobov M. Umumiyo‘rta ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholashning printsip parametr va indikatorlarini amaliyotga joriy etish intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashning muhim omili.// Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. -Toshkent, 2015. - B. 89-96.

belgilaydi, hamda o‘quv rejava dasturlar, darsliklar, qo‘llanmalarni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat ta’lim standartining tarkibiy qismlariga quyidagicha izoh berish mumkin:

- davlat ta’lim standartining yadrosi hisoblangan uzluksiz majburiy ta’lim tizimining bosqichlariga qo‘yiladigan majburiy minimal talablar
- o‘quvchilarning umumta’lim fanlari bo‘yicha tayyorgarligi va kompetentlilik darajasiga qo‘yiladigan talablar;
- uzluksiz majburiy ta’lim tizimining majburiy minimal ta’lim mazmuni va egallanadigan kompetentsiyalar

- o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya maqsadlariga qaratilgan turli xatti-harakatlarni bajarishga imkon beradigan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig‘indisidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tizimli yondashuvga asoslangan umumiyo‘rta ta’limning umumta’lim fanlari bo‘yicha davlat ta’lim standartlari o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan bir nechta komponentlardan tashkil topadi.

Ta’lim sifati monitoringining asosiyfunktsiyalari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

- a) o‘qitish sifati ko‘rsatkichlari tizimi orqali sinflar va fanlar kesimida o‘qitish sifatini tizimli baholash, qiyosiy tahlillar tayyorlash;
- b) o‘qitish sifati dinamikasini taqqoslash, unga ta’sir etgan shart-sharoit va omillarni aniqlash;
- v) turli pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi natijalarini o‘zaro taqqoslash, samaradorligi yuqori deb topilganlarini ommalashtirish;
- g) monitoring natijalariga ko‘ra kompleks chora-tadbirlarni belgilash;
- d) monitoring natijalari asosida jamiyat, ilm-fan, texnologiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda talablar asosida DTS, o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualarga o‘zgartirishlar kiritish va boshqalar.

Ta’lim sifatini samarali boshqarish va baholash eng avvalo, jamiyatning muhim ehtiyoji hisoblangan ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi, zamonaviy shaxsga, raqobatbardosh bilimli va yetuk shaxslarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

Ta’lim-tarbiya jarayonining ta’lim sifati monitoringining kontseptual modeli shartli ravishda vertikal va gorizontal boshqaruv munosabatlariga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: ichki (mikro) va tashqi(makro) monitoring.

Ta’lim muassasalarida o‘qitish sifati monitoringi tushunchasining pedagogik mazmuni o‘quvchilar tomonidan davlat ta’lim standarlarida belgilangan talablarning bajarilishini tizimli yondashuv, ta’lim sifatiga ta’sir etgan omillarni aniqlash, uning

keyin bo‘ladigan oqibatlarni aniqlash, bashoratlash hamda tegishli chora-tadbirlarni rejalashtirish imkonini beruvchi jarayon hisoblanadi.

Ta’lim sifati monitoringi jarayoni asosan o‘zaro mantiqiy bog‘langan uchta bosqichdan iborat bo‘ladi:

- Baholash bosqichi- bunda- DTS talablarining bajarilishi va ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning natijalarini qayd etish;

- tahlil bosqichi - kuzatish va baholash natijalari umumlashtirish va mavjud holat bo‘yicha tizimli tahlil qilish, aniqlangan kamchimliklarni to‘ldirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish;

- korrektsiyalash va bashoratlash bosqichi-bu bosqichda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarida aniqlangan kamchiliklarni hamda ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar ustida ishlanadi. Bu jarayonda hamkorlik pedagogikasi hamda logfreym texnologiyasi asosida turli shakldagi mashg‘ulotlardan foydalilanildi. Ta’lim sifati monitoringining eng muhim jihatni uning tuzatuvchi, rivojlantiruchi xususiyatga egaligi hisoblanadi. Yuqorida jarayon uzluksiz davom ettirilsa, ta’lim sifati yaxshilanib ijobiy o‘zgarish sodir bo‘ladi. Ta’lim tizimida sifat monitoringi modeli ma’lum darajada mustaqil pedagogik jarayon va kategoriyalarning uzviy munosabatidan tashkil topgan. Ichki monitoring bevosita ta’lim muassasasida tashkil etilgan monitoring guruhi tomonidan o‘tkaziladi. Unda o‘quv yili davomida barcha guruhlar, fan o‘qituvchilari, guruh rahbarlari va o‘tilayotgan fanlar monitoring jarayoni bilan qamrab olinadi. Ta’lim sifati monitoringi printsiplari sifatida eng avvalo xalollik, adolatliylik, haqqoniylilik, ob’ektivlik, o‘quvchilarning psixologik, fiziologik xususiyatlari hisobga olinganligi, oshkorlik, aniqlik, tenglik, ilmiy-metodika soslanganlik kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida rahbar menejer tomonidan monitoring qilish quyidagilarni bajarilganligi o‘rganiladi va tizimli tahlil qilinishi lozim:

- a) kadplap tayyoplash sifati yaxshilash hamda bilimni mahoratli kadrlarni tanlash va ularning faoliyatini baholash, ichki va tashqi attestatsiyadan o‘tkazish;

- b) o‘quvchilarda ta’limning davlat ta’lim standarti talablari asosida bilim, ko‘nikma, malaka va kompeteniyalarning shakllantirilganlik darajasini hamda ularga ta’sir etgan omillarni aniqlash;

- v) o‘quv-tarbiya jarayoniga o‘qitishning zamonaviy ilg‘or shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning samarali shakllari va usullarining joriy etilganligi;

- g)ta’lim muassasalarida o‘quv va o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodidan samarali foydalanish holati;

- e) ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablariga javob beradigan asosiy vositalar bilan boyitish va ulardan samarali foydalanish;

yo) tizimli tarzda pedagog xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etish holati;

i) ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilapning bilimi dapajasini tizimli baholash hamda ta'lim sifati ustidan nazopat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablapni belgilovchi me'yopiy asoslarning amaliyotga joriy etilganligi;

j) o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, zamonaviy texnika va texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish hamda umummadaniy ko'nikmalarining shakllantirilganligi ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlash, nazorat qilish, baholash va boshqarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi faoliyatimizga berilgan eng oliy qadriyatdir. 2-jild - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - B.508.
2. Shamuratov R. Oliy ta'lim tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqaruv jarayoni texnologiyalarini takomillashtirish., Namangan davlat universiteti ilmiy xabarnomasi: soni. 1: 8-son, 70.
3. Qambarov J., Turdalieva M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari.Zamonaviy ta'lim jurnali. 2014 yil.7-son. B.-19
4. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 iyuldaggi 515-son qarori.
5. Radjabova G.U. Zashita prav chastnix predprinimateley i rol malogo biznesa v innovatsionnoy ekonomike - WebofScholar, 2018. - T. 3. - №. 3.
6. Vaxobov M. Umumi o'rta ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholashning printsip parametr va indikatorlarini amaliyotga joriy etishintellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashning muhim omili.// Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - Toshkent, 2015. - B. 89-96.
7. Pardaeva M.D. Umumi o'rta ta'lim maktablarida kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimini boshqarish (informatika va axborot texnologiyalari fani misolida). Toshkent, 2018.
8. N.G. Nichkalo, G.N. Filanova, O.V. Suxodol'skoy-Kuleshov. Sovremennoe obrazovanie kak otkrytaya sistema. - "Institut nauchnoy i pedagogicheskoy informatsii RAO, "YuRKOMPANI", 2012 g.